

“MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI”

Abduvaliyeva Farida Salimjon qizi

Namangan davlat universiteti 3- kurs tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0000-01473254>

faridaabduvaliyeva57@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari yoritib beriladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, multimedia vositalarining imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda, ularni maktabgacha ta'lim tizimiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada nutq madaniyati tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari hamda multimedia vositalarining ushbu jarayonga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, nutq madaniyati, multimedia, interaktiv texnologiya, raqamli resurslar, animatsiya, audio material, video dars, motivatsiya, diagnostika.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEECH CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN USING MULTIMEDIA TOOLS

Annotation: This article examines the theoretical and methodological foundations of using multimedia tools in the process of developing speech culture in preschool children. In the context of the modern educational environment, where the possibilities of information and communication technologies, especially multimedia tools, are expanding, their integration into the preschool education system is of great importance. The article analyzes the essence of the concept of speech culture, its structural components, the developmental characteristics of preschool children's speech, and the impact of multimedia tools on this process.

Key words: preschool education, speech culture, multimedia, interactive technology, digital resources, animation, audio material, video lesson, motivation, diagnostics.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы использования мультимедийных средств в процессе формирования культуры речи у детей дошкольного возраста. В условиях современной образовательной среды, где расширяются возможности информационно-коммуникационных технологий, в частности мультимедийных средств, их внедрение

в систему дошкольного образования приобретает особую значимость. В статье анализируются сущность понятия «культура речи», её структурные компоненты, особенности развития речи у детей дошкольного возраста, а также влияние мультимедийных средств на данный процесс.

Ключевые слова: дошкольное образование, культура речи, мультимедиа, интерактивные технологии, цифровые ресурсы, анимация, аудиоматериал, видеоурок, мотивация, диагностика.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va axborotlashtirish jarayoni ta'lim tizimiga, xususan, maktabgacha ta'lim sohasi rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda insonning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishida nutq madaniyati muhim o'rin tutadi. Nutq madaniyati nafaqat to'g'ri va ravon gapira olish, balki nutqning ifodali, mantiqiy, maqsadga yo'naltirilgan hamda estetik jihatdan mukammal bo'lishini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kun ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh – bolaning nutqi jadal rivojlanadigan, lug'at boyligi kengayadigan, grammatik tuzilma shakllanadigan hamda muloqot ehtiyoji kuchli namoyon bo'ladigan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaga berilgan ta'sir, metod va vositalar uning keyingi nutqiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy ta'lim vositalari bilan bir qatorda multimedia vositalaridan foydalanish bolaning nutq faolligini oshirish, uning qiziqishini faollashtirish va bilimni yanada chuqurroq o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga joriy qilinishi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim mazmunini boyitish, jarayonni qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Chunki multimedia tasvir, tovush, animatsiya, video, matn kabi turli axborot shakllarini birlashtirgan holda bolaga ma'lumotni ko'rgazmali va tushunarli yetkazib berishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada multimedia vositalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik tizimi, komponentlari hamda amaliy ahamiyati yoritib beriladi. Bu bo'limda maqolaning kirish qismi

yoziladi. Kirish qismida tadqiqotda aniqlangan muammolar, o'rganilmagan muammolar, tadqiqot maqsadini va vazifalarni aniqlash talab etiladi.

METODLAR

Multimedia vositalari asosida nutq madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi komponentlardan iborat metodik model taklif etiladi:

1. Motivatsion komponent
2. Diagnostik komponent
3. Ta'limiy-amaliy komponent
4. Baholovchi-natijaviy component

Motivatsion bosqichda bolalarda nutqqa, muloqotga va multimediyaga bo'lgan qiziqish shakllantiriladi. Bunda rang-barang animatsion lavhalar, qiziqarli multfilmlar va ertaklar, ovozli tasvirlar, musiqali mashqlar, interaktiv savol-javoblardan foydalaniladi. Bolalar tinglaydi, tomosha qiladi, hayratlanadi va faol ishtirok etishga intiladi. Bu ularda nutqiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Diagnostik bosqichda bolalarning boshlang'ich nutqiy darajasi aniqlanadi. Tarbiyachi quyidagilarga e'tibor qaratadi: so'z boyligi, talaffuz holati, gap tuzish qobiliyati, hikoya qilish qobiliyati, muloqotga kirisha olish darajasi. Multimedia testlar, rasm asosidagi savollar, audio va video topshiriqlar orqali bolalarning nutqiy holati aniqlanadi va individual yondashuv belgilanadi.

Ta'limiy-amaliy component eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Unda multimedia vositalari orqali sistemali mashg'ulotlar olib boriladi. Bu jarayon ertaklarni tomosha qilish va muhokama qilish, rasmlar asosida hikoya tuzish, multfilm qahramonlari nomidan gapirish, interaktiv o'yinlar orqali nutqiy mashqlar, rolli o'yinlar bilan birga videolardan foydalanish, she'r, tez aytish, topishmoqlarni audio yordamida o'rganish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar ketma-ketlik, izchillik va murakkablikning bosqichma-bosqich oshishi asosida olib boriladi.

Baholovchi-natijaviy component bosqichda olingan natijalar tahlil qilinadi va baholanadi. Multimedia vositalar orqali qayta testlar, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish amalga oshiriladi. Natijalar nutqning ravonligi, lug'at boyligi, grammatik to'g'rilik, ifodalilik, mustaqil fikrlash darajasini sezilarli rivojlanganini

ko'rsatadi. Mazkur metodik model samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etilishi rejalashtiriladi. Tajriba jarayonida nazorat va tajriba guruhlar bilan ishlanadi. Tajriba guruhida multimedia asosida mashg'ulotlar olib borilsa, nazorat guruhida an'anaviy metodlar qo'llaniladi. Natijalar tahlili multimedia asosida ta'lim olgan bolalarda nutq faolligining oshishi, muloqotga kirishish osonlashishi, so'z boyligining kengayishi, hikoya qilish ko'nikmasining takomillashuvi o'sishni ko'rsatadi. Bu esa metodikaning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Metodika komponentlarini izchil qo'llash orqali tarbiyalanuvchilarda:

- ✓ tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va aniq artikulyatsiya qilish ko'nikmalari shakllanadi;
- ✓ ravon, mantiqiy va izchil nutq tuzish malakalari rivojlanadi;
- ✓ grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzish qobiliyati mustahkamlanadi;
- ✓ lug'at boyligi kengayadi va faol so'z zahirasi ortadi;
- ✓ monologik va dialogik nutq ko'nikmalari rivojlanadi.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida qayd etilgan natijalar:

- 15-20 % bolalar o'z fikrini aniq, tushunarli va madaniyatli tarzda ifodalash qobiliyatiga ega bo'ldilar.
- multimedia asosidagi mashg'ulotlar jarayonida 25-30% bolalarda muloqot madaniyati rivojlanib, suhbatdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish odati shakllandi.
- tinglash va tushunish ko'nikmalari takomillashadi, jamoada ishlash va fikr almashish malakalari rivojlandi.
- mashg'ulotlar jarayonida diqqat, xotira va tafakkur jarayonlari sezilarli faollashdi.

Multimedia vositalaridan ongli va maqsadli foydalanish orqali tarbiyalanuvchilarda axborot-kommunikatsion kompetensiyalar ham shakllandi. Jumladan, raqamli savodxonlik elementlari rivojlanadi, ta'limiy dasturlar bilan ishlash ko'nikmalari hosil bo'ladi, axborotni tanlash va undan samarali foydalanish madaniyati tarkib

topadi hamda texnologiyalarga mas'uliyatli munosabat yuzaga keladi. Bu jarayon bolalarning zamonaviy ta'lim muhitiga moslashuvini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosalar shuni ko'rsatdiki, media asosidagi mashg'ulotlar bolalarning lug'at boyligini kengaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tajriba yakunida bolalar planshet va interaktiv doskadan foydalanish, ta'limiy ilovalarni ishga tushirish va topshiriqlarni mustaqil bajarish malakalariga ega bo'ldilar. Bu esa ularning raqamli savodxonligi shakllanayotganini ko'rsatadi. Shaxsiy rivojlanish jihatidan tahlil qilinganda, multimedia asosidagi mashg'ulotlar bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirgani kuzatildi. Mashg'ulotlarda faol qatnashgan bolalar sahna ko'rinishlarida, hikoya tuzishda va savol-javoblarda tashabbus ko'rsatdilar. Ta'lim jarayoni samaradorligi nuqtayi nazaridan qaralganda, multimedia vositalari pedagog faoliyatini yanada tizimli tashkil etishga imkon berdi. Mashg'ulotlar oldindan rejalashtirilgan elektron materiallar asosida olib borilgani sababli vaqt tejaldi va mavzular yanada tushunarli tarzda o'zlashtirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 15-noyabrdagi "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi" ochilish marosimidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/569>
2. Karimova N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – T.: 2020.
3. Ismoilov A. Nutq madaniyati asoslari. – T.: 2019.
4. Усова А.П. Развитие речи дошкольников. – М.: 2018.
5. Nurmatova D. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent, 2023.
6. Piaget J. The Child and Reality. – London, 2017.
7. Ismoilova Z. Maktabgacha ta'limda AKT. – Samarqand, 2021.